

## **ORALIQ HISOBOT**

**2 – 20 noyabr 2016**

**24 noyabr 2016**

### **I. QISQACHA MAZMUNI**

- Prezident Islom Karimovning vafotidan so'ng O'zbekiston Respublikasida muddatdan ilgari prezident saylovi 2016 yil 4 dekabr kuni Konstitutsiyaga muvofiq o'tkaziladi. Prezident besh yillik muddatga berilgan eng ko'p ovozlar bilan saylanadi. Agar birona nomzod ham haqiqiy ovozlarning 50 foizini olmasa, bir oy mobaynida ikki yetakchi nomzod orasida ikkinchi davra o'tkaziladi. Birinchi davra saylov haqiqiy deb hisoblanishi uchun saylovchilarning 33 foizi saylovda qatnashgan bo'lishi shart, ammo ikkinchi davra uchun bunday talab mavjud emas.
- Prezident saylovi to'g'risidagi qonun (PSQ) saylov o'tkazish uchun asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. YEHXT/DIIBning bir qator avvalgi, asosan texnik xususiyatga ega, tavsiyalari huquqiy asosda o'z aksini topgan. Shunday bo'lsada, umumiy huquqlar va erkinliklar borasidagi kamchiliklarga tegishli ancha oldin berilgan tavsiyalar ko'rib chiqilmagan.
- Saylovni tashkillashtirish va o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiya (MSK)si mas'uldir. Qonunda nazarda tutilgan muddatda 14 saylov okrugi va 9.378 saylov uchastkasi tashkil etildi. Komissiyalarning barcha a'zolari mahalliy kengashlar takliflari asosida tayinlangan.
- Saylov e'lon qilingandan buyon MSK nomzodlarni ro'yxatga olish, kuzatuvchilar akkreditatsiyasi va saylovga tayyorgarchilik borasida qator qarorlar qabul qilib o'z veb-saytida e'lon qildi. U saylovchilar ishtirokini oshirish maqsadida saylovchilarning xabardorligini oshirish jadal kampaniyasini boshlab yubordi, shuningdek televideniye orqali boshqalar o'rniga ovoz berishga qarshi roliklarni namoyish qilmoqda. Bir muncha saylov bulletinlari birinchi bor Brayl yozuvida ham chop etiladi.
- MSK to'rt siyosiy partiy ko'rsatgan to'rt nomzodni qonunda nazarda tutilgan muddat ichida ro'yxatga oldi. Mustaqil nomzodlar saylovda lavozimga da'vogar bo'la olmaydilar.
- Qat'iy boshqariladigan kampaniya 30 oktabr kuni boshlanib, barcha to'rt partiya bir-birinikiga o'xshash materiallardan majmuidan foydalanib saylovchilarga yetkazish monand strategiyalarni tanlaganligi ko'zga ko'rinarlidir. Barcha nomzodlar mamlakat bo'ylab saylovchilar bilan saylov oldi uchrashuvlar o'tkazmoqdalar. Nomzodlar orasida bahs-munozara olib borish rejalashtirilmagan va ularning dasturlari saylovchilarga muhim bo'lgan qator qarashlarni taqdim etmaydilar. Saylov oldi tashviqot mazmunida vakolatning misli yoq o'tish davrida izchillik va barqarorlikka talab ustundir.
- Saylovchilarning markazlashtirilgan ro'yxati olib borilmaydi. Sud tominidan layoqatsiz deb topilganlar yoki sodir etgan jinoyatlarining og'ir-yengilligidan qat'i nazar qamoq jazosini o'tayotganlardan tashqari, 18 yoshga yetgan barcha fuqarolar saylovda qatnashish huquqiga ega. Saylovchilar, agar saylov uchastkasida doimiy yashashlarini isbot qila olsalar, saylov

uchastkalarida ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Saylovchilar ro'yxatlarini jamoatchilik tomonidan tekshirish 19 noyabr kuni ro'yxatlar saylov uchastkalarida e'lon qilinishi bilan boshlandi. 21 million atrofida saylovchilar ovoz berish uchun ro'yxatga olindi.

- Tashviqotni yoritish masalalarini PSQ va MSKning tegishli normativ hujjatlari belgilaydi. 7 davlat ommaviy axborot vositalari va 43 mahalliy ommaviy axborot vositalari e'fir tekin vaqti va matbuotda tekin maydon nomzodlar orasida teng taqsimlangan. Tahririyat tomonidan yoritishda, barcha OAVlari barcha nomzodlarga e'tibor teng bo'lishiga rioya qilishlari lozim. Nomzodning sha'niga tegish, prezidenga tuxmat, xaqorat yoki "fuqarolar sha'niga" xaqorat qilish va yolg'on axborot tarqatish singari jinoyiy qilmish hisoblanadi. Tanqidiy fikrlarni ifodalovchi onlayn manba'larga aksariyat hollarda kirish imkoniyati to'silgan.
- Saylovga doir nizolarni hal qilish jarayoni bir necha qonun va MSK qarorlari bilan tartibga solinadi. Qonunda kimlar shikoyat bilan murojyat etishi mumkinligi aniq belgilanmagan. Saylovga tegishli nizolar ustidan qaror saylov komissiyalari yoki sudlar tomonidan chiqariladi. MSK va Ombudsman saylovga doir shikoyatlarni olish uchun shoshilinch aloqa liniyalarni ishga tushirganlar.
- Qonunda asosan fuqarolarni saylovni kuzatish jarayoniga yo'l qo'yilmaydi, ammo saylovdagi nomzodlar kuzatuvchilarni tayinlashlari mumkin.
- YEHXT/DIIHB Saylovni kuzatish missiyasi 2 noyabr kuni Toshkentda o'z ishini boshladi. Uning tarkibi 15 nafar asosiy a'zo guruhi va keyinroq butun mamlakatda joylashtirilgan 20 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilardan iborat.

## II. MUQADDIMA

Markaziy saylov komissiya (MSK)sining taklifiga va 2016 yil 11-13 oktabr kunlari mobaynida olib borilgan Talabni baholash missiyasining tavsiyalariga binoan, YEHXTning Demokratik Institutlar va Inson Huquqlari bo'yicha Byurosi (YEHXT/DIIHB) 2 noyabr kuni Saylovni kuzatish missiya (SKM)sini joriy qildi.<sup>1</sup> SKM, Elchi Peter Teyler boshchiligida, Toshkentda joylashgan 15 nafar asosiy guruh a'zolaridan va mamlakat bo'ylab 9 noyabr kuni ishga tushgan 9 yerda joylashgan 20 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilardan iborat. Missiya a'zolari YEHXTning 21 a'zo davlati vakillatidan tarkib topgan. A'zo davlatlardan ovoz berish kuni jarayonlarini kuzatish uchun 250 nafar ikkinchi navbat kuzatuvchilarni yo'llash so'ralgan.

## III. ASOSIY AXBOROT VA SIYOSIY MAZMUN

9 sentabr kuni, Islom Karimov, O'zbekistonning birinchi prezidenti lavozimda bo'la turib olamdan ko'z yumganidan bir hafta so'ng, MSK 4 dekabrni muddatdan ilgari prezident saylovi kuni, deb e'lon qildi.<sup>2</sup> 8 sentabr kuni Oliy Majlis (parlament) ikki palataning qo'shma yig'lishida Senatning raisi Konstitutsiyada nazarda tutilgan vaqtincha prezident vakolatlarini bajarishdan o'z nomzodini

<sup>1</sup> [YEHXT/DIIHBning O'zbekistonga tegishli barcha avvalgi hisobotlarini ko'ring.](#)

<sup>2</sup> Prezident Karimov birinchi bor 1991 yilda prezident etib saylandi va Konstitutsiya 1992 yilda kuchga kirdi. 1995 yilda o'tkazilgan referendumda uning birinchi muddati 2000 yilgacha uzaytirildi, shu yili u ikkinchi bor yutib chiqdi, so'ng yana bir referendumda prezidentlik muddati besh yildan yetti yilgacha uzaytirildi – bu harakat 2011 yilda parlament tomonidan orqaga qaytarildi. Prezident Karimov 2007 yilda qayta saylandi (qayta ko'rib chiqilgan Konstitutsiya qoidasi asosida) 2015 yilda yana qayta saylandi.

olib tashlaganidan song Bosh Vazir Shavkat Mirziyoyevni prezident vazifasini bajaruvchi etib tayinladi.

Saylov bir davlat rahbari boshchiligida o'tgan mustaqillikning 25 yilidan song muhim bir bosqich hisoblanadi. O'tish jarayonida muhim e'tibor davlat siyosiy tizimida Prezident vakolatlariga va garorlariga berilgan.<sup>3</sup> Prezident qonun chiqaruvchi vakolatlariga ega, bu o'z navbatida davlat hokimiyatizimining bo'linish printsiplari samarasiga ta'sir qiladi.

O'zlarini ko'pchilik blokiga muxolifat, deb e'lon qilgan ikki fraksiya mavjudligiga qaramay,<sup>4</sup> parlament asosan marhum prezidentning siyosatini qo'llab keldi.<sup>5</sup> Siyosiy partiyalar tizimi qotib qolgan, parlamentda o'ringa ega to'rt ro'yxatga olingan siyosiy partiyalarning barchasi saylovchilar muayan ijtimoiy va iqtisodiy tabaqalarining manfaatlarini ifoda etishi kerak. 2003 yildan beri biron yangi siyosiy partiya ro'yxatga olinmadi.<sup>6</sup>

Ushbu saylov YEHTX/DIHHB kuzatayotgan yettinchi saylov bo'lib, ovoz berish kunidagi jarayonlarni qisqa muddatli kuzatuvli saylovni kuzatish birinchi to'liq missiyasidir.

#### IV. SAYLOV TIZIMI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOS

Prezident umumxalq, to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yoli bilan besh yillik muddatga berilgan umumiy ovozlar bilan saylanadi. Agar bironta nomzod ham 50 foiz ovoz ololmasa, bir oy mobaynida ikki yetakchi nomzod orasida ikkinchi davra o'tkaziladi. Birinchi davra saylov haqiqiy, deb hisoblanishi uchun, saylovchilarning 33 foizi saylovda qatnashgan bo'lishi shart, ammo ehtimoliy ikkinchi davra uchun bunday talab qo'yilmagan. Konstitutsiyaga binoan prezidentlik ikki ketma-ket muddat bilan cheklangan.

Prezident saylovi asosan Konstitutsiya, Prezident saylovi to'g'risidagi qonun (PSQ), Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonun (MSK to'g'risidagi qonun) va Fuqarolarning saylov huquqlarining kafolati to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi (Saylov qonuni). Qoidalar ko'plab boshqa huquqiy hujjatlar va MSKning qarorlarida ham aks ettirilgan.<sup>7</sup> 2015 yil dekabr

<sup>3</sup> Prezident ijro etilishi majburiy farmonlar chiqarish va qonun loyihalarini tashabbus qilishi va loyiha yoki ulardagi qoidalarni taqiqlash huquqiga ega. Prezident bosh vazir (parlamentda eng ko'p o'ringa ega siyosiy partiya taklifi asosida) va Senat va Markaziy bank boshqaruvi raislarining, shuningdek mamlakatning uch yuqori (Konstitutsiyaviy, Oliy va Yuqori xo'jalik) sudining raislari va sudyalari nomzodlarini ko'rsatadi; Vazirlar Mahqamasini tasdiqlaydi; (Oliy Majlis ma'qullashi bilan) bosh prokuror, Milliy xavfsizlik xizmati, hisob palatasi raisi, boshqa sudlar sudylarini, shuningdek (nomzodlarini bosh vazir ko'rsatgan) viloyat hokimlarini tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi.

<sup>4</sup> 2015 yil 15 mart kuni O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) Milliy Tiklanish O'zbekiston demokratik partiyasi parlamentdagi 150 o'rinning 88 o'rin ko'pchiligiga ega "Demokratik kuchlar bloki"ni tuzdilar. 16 mart kuni O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va Adolat O'zbekiston social-demokratik partiyalarning parlamentdagi fraksiyalari o'zlarini muxolifat deb e'lon qildilar.

<sup>5</sup> 2015 yilning boshlarida Prezident Karimov avvalgi qonun chiqarish organini faolsizlik tufayli tanqid qildi: Prezidentning fikriga ko'ra, avvalgi besh yil davomida, Oliy Majlis qabul qilgan 140 qonundan faqat 19tasini qonunchilik (quyyi) palata deputatlari tashabbus qilgan edilar, shu jumladan faqat uchta butunlay ayngi huquqiy hujjat edi (qolgan 16tasi mavjud qonunlarga o'zgartish yoki qo'shimchalar edi). Hozirgi tarkibda parlament tashabbus huquqidan ko'proq foydalanib kelmoqda, ammo huquqmat yoki prezidentni tanqid qilishdan o'zini hamon tiyib kelmoqda.

<sup>6</sup> O'zLiDeP 2003 yil noyabr oyida ro'yxatga olindi. Milliy Tiklanish O'zbekiston demokratik partiyasi 2008 yil avgust oyida Milliy Tiklanish va Fidokorlar Milliy demokratik partiyalarining qo'shilishi natijasida tashkil topdi.

<sup>7</sup> Tadbir etiladigan qonunchilik hujjatlari shuningdek Siyosiy partiyalar to'g'risida qonunni (oxigi o'zgartishlar 2014 yilda kiritilgan), Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish va Fuqarolar murojaatlari to'g'risidagi qonunlarni shuningdek Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodekslarning (barchasiga 2015 yilda oxirgi o'zgartishkar kiritilgan) tegishli qoidalarni o'z ichiga oladi.

oyida, oxirgi prezident saylovidan so'ng, PSQ, MSK to'g'risidagi va boshqa saylovga aloqadir qonunlarga ba'zi o'zgartishlar kiritildi.<sup>8</sup> Xususan, nomzod uchun talab qilinadigan qo'llab-quvvatlash imzolar soni mamlakatdagi saylovchilar sonining besh foizidan bir foizigacha kamaytirildi va YEHT/DIHB ilgari tavsiyalariga muvofiq ravishda MSKga qarorlarini o'z veb-saytida e'lon qilish majburiyati yuklandi. Qoshimcha ravishda saylov oldi kompaniyasi va muddatdan ovoz berishga tegishli huquqiy qoidalar ishlab chiqildi.<sup>9</sup>

Qonun doirasi me'yoridan ortiq taqiqlovlar va o'zboshimchalik bilan ijro etish orqali fuqarolarni asosiy erkinliklarini cheklab qo'yilgan.<sup>10</sup> Jamoat yig'ilishlarini o'tgazish uchun bir oy avval ruxsat olish talabi, shuningdek choralar ko'rish, jumladan jarima va uch yilmuddatga qamoq jazosi shular jumlasidandir. Jamiyat birlashmalari chekloviga siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larni ro'yxatga olishga doir og'ir talablar, ro'yxatga olishni rad etish va ro'yxatdan chiqarib tashlash ixtiyoriy vakolatlar, ularning faoliyati yo'lidagi huquqiy va ma'muriy to'siqlar kabilar shular jumlasidandir. 2016 yilda NNTlarni chet eldan mablaq bilan ta'minlashga doir shunday ham mushkul qoidalari yanada murakkablashtirildi.<sup>11</sup> So'z erkinligi ko'plab jinoyiy va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi qoidalar bilan cheklanadi. YEHT/DIHBning fundamental erkinliklarga doir aksariyat tavsiyalari inobatga olinmaganicha qolmoqda.

## V. SAYLOV BOSHQARUV ORGANLARI

Prezident saylovi MSK, 14 okrug saylov komissiyasi (OSK) va 9.378 uchastka saylov komissiyasi (USK) tomonidan o'tkaziladi.<sup>12</sup> MKS doimiy organdir, holbuki OSK va USK har bir saylovda tashkil etiladi. Davlat va mahalliy muassasalar saylov komissiyalariga tashkiliy ishlarda va faoliyatida yordam ko'rsatishlari shart.

MSK 16 a'zodan iborat bo'lib cheklanmagan muddatga viloyat kengashlari taklifi asosida parlament tomonidan tayinlanadi. Prezident ko'rsatgan nomzod asosida MSK a'zolari o'z qatoridan raisni saylaydilar. Besh nafar a'zo doimiy bo'lib, boshqalari o'z ixtiyori asosida islaydilar. Ular o'z viloyatlarida yashaydilar va yig'ilishlarda poytaxtda uchrashadilar. MSKning ikki a'zosi ayollardir.

Muddatdan ilgari prezident saylovi e'lon qilinishidan so'ng MSK komissiyalar tuzilishi, nomzodlarning ro'yxatga olinishi, kuzativchilarni akkreditatsiya qilinishi va saylovga tayyorgarlik to'g'risida, 55 ta qaror qabul qilib veb-saytida e'lon qildi. Shunisi ham muhimki, nogiron saylovchilarning mustaqil qatnashuvini osonlashtirish va saylov huquqlarini yanada kafolatlash

<sup>8</sup> Siyosiy partiyalar to'g'risida va Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi qonunlarga kiritilgan o'zgartishlar prezident sayloviga tadbiiq etilmaydi.

<sup>9</sup> Ustiga ustak, 2014 yilda MSK qarori bilan joriy etilgan suddan avvalgi hibsdan saqlash muassasalarida saylov uchastkalari PSQga kiritilgan.

<sup>10</sup> O'zbekistonning To'rtinchi davriy hisoboti bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Qo'mitasi (IHQ)ning yakuniy kuzatmalari, 2015 yil, avgust (United Nations Human Rights Committee (HRC) Concluding Observations on the fourth Periodic Report of Uzbekistan, August 2015).

<sup>11</sup> Qonunda Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va NNTlarni chet el moliyalartirilishi bo'yicha bank komissiyasining tasdig'i shuningdek, NNT vakillarining chet el safarlari to'g'risida axborot berilishi talab qilinishi. Ushbu talablar Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) to'g'risidagi qonunga 2016 yil 25 aprelda kiritilgan o'zgartishlar va Adliya vazirligining 2016 yil 15 iyundagi 2802-son buyrug'i bilan joriy etilgan.

<sup>12</sup> Jumladan mamlakatdan tashqarida 36 davlatdagi diplomatik vakolarxonalarda tashkil etilgan 44, harbiy majmularida tashkil etilgan 226 va suddan avval hibsdan saqlash muassasalarida tashkil etilgan 11 saylov uchastkasi. OSK soni 12 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida tashkil etilgan saylov okruglar soniga mos.

maqsadida MSK nogiron shaxslar ehtoyojlarini ko'llagan nizom qabul qildi.<sup>13</sup> Saylov bulletinlarining bir qizmi birinchi bor Brayl yozuvida ham chop etiladi.

MSK OSKlarini shahar va viloyat Kengashlari deputatlari tavsiya qilgan va tanlagan nomzodlar asosida tashkil qildi. MSK USKlarini mahallalardan ko'rsanitgan nomzodlar asosida kengashlar tavsiyalari zahirida tuzdi.<sup>14</sup> Qonunga ko'ra, siyosiy partiyalar a'zolari, nomzodlar va ularning ishonchli vakillari saylov komissiyalarda ishlamaydilar; quyyi darajadagi komissiya a'zosi bo'lish uchun yagona me'zon "obro'" hisoblanadi. Ko'p hollarda USK mahalla idorasi va uning atrofida joylashgan muassasalarning xodimlari USK a'zolari bo'ladilar. Ba'zi hollarda USK raislari bo'lib saylov uchastkasi joylashgan muassasaning rahbari saylanadi va uning qo'l ostidagi xodimlar a'zo bo'ladilar.<sup>15</sup>

1 noyabr kuni MSK barcha USK a'zolari uchun o'qish dasturini boshlab yubordi. Ovoz berish kuni jarayonlariga bag'ishlangan ikkinchi davra o'qish 20-30 noyabr kunlariga rejalashtirildi. Shuningdek, MSK saylov jarayonining turli jihatlari to'g'risida saylovchilarni xabardorigini oshirish, jumladan boshqalar o'rniga ovoz berishga qarshi va saylovchilar ishtirokini oshirish bo'yicha jadal kampaniyani boshlab yubordi. Ba'zi teleroliklar imo-ishora tilida, o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida korsatilmoqda.<sup>16</sup> Saylov kunini bildiradigan va lavozimga da'vogarlar to'g'risidagi axborot yetkazuchi plakatlar ko'rinadigan qilib joylashtirilgan.

Qonun ovoz berish kuni o'z saylov uchastkalarida uzoqda bo'ladigan saylovchilarga muddatdan ilgari ovoz berish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda qatnashish uchun saylovchi, garchi isbot talab qilinmasa-da, joyda bo'lmasligining sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda murojaat etishi lozim. Muddatdan ilgari ovoz berish 24 noyabr kuni boshlanib 2 dekabr kuni tugaydi.

## VI. SAYLOVCHILARNI RO'YXATGA OLISH

Konstitutsiya 18 yoshga yetgan barcha fuqarolarga saylovda qatnashish huquqini beradi. Layoqatsiz deb e'lon qilinganlar yoki sodir etgan jinoyatlarining og'ir-yengilligidan qat'i nazar qamoq jazosini o'tayotganlarning ovoz berishiga yo'l qoyilmaydi, vaholanki suddan avvalgi hibsga olish muassasalaridagilar ovoz berishi mumkin. Markazlashtirilgan saylovchilarni ro'yxatga kiritish tizimi yo'q Saylovchilar doimiy yashash joylari asosida ro'yxatga olinadilar; PSQ saylovchilarni ayni paytda yashab turgan joylarida vaqtinchalik ro'yxatdan o'tishlariga yo'l qo'yadi. Qonunga ko'ra, saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxati (SR)ga kiritilishi mumkin. Qonunga ko'ra, USKlari royxatlarni mahalliy ijroiya hokimiyati organlari – hokimiyatlar bergan ma'lumot asosida tuzadi. Biroq amalda OSK, USK, mahalla va hokimiyatlar dastlabki ro'yxatlar tuzilishining boshqa xilma-xil yo'llarini tasvirlab berdilar. USK ma'lumotni uyma-uy yurib aniqlaydilar.<sup>17</sup>

<sup>13</sup> MSKning 8 noyabrda 773-sonli nizomiga ko'ra, barcha SU aravachalardan foydalanadigan saylovchilarning binoga kirishini osonlashtirish maqsadida estakadalar bilan jihozlanishi lozim; shuningdek bunday saylovchilarning ehtiyotlarida moslashtirilgan alohida ovoz berish budkalari ham o'rnatiladi. MSK ma'lumotiga ko'ra, mamlakatda 39.000dan ortiq ko'zi ojiz yoki ko'rishi zaif saylovchilar bor.

<sup>14</sup> Mahalla o'zbek jamiyatining an'anaviy tuzilmasi bolib, u kundalik hayot masalalarini tartibga soladi va jamoalarni davlat bilan bog'lashga xizmat qiladi. Ularning vazifalari 1993 yilda qabul qilingan Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari to'grisidagi qonun (Mahalla qonuni) bilan rasmiylashtirildi. Qonun mahalla komissiyalari qarorlarini buzish qonun asosida jazoga olib keladi.

<sup>15</sup> Bunday hollar YEHT/DIHB SKM tomonidan Toshkent va Farg'onada kuzatildi.

<sup>16</sup> Saylov kuni to'g'risidagi bir rolik ingliz tilida edi.

<sup>17</sup> Bu ish mahalla komissiyalari va jamoatchilik tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

SR muqim saylov uchastkalarida chop etilib jamoatchilik tomonidan tekshirish uchun 19 noyabr kuniga borib, maxsus saylov uchastkalarida esa 2 dekabr kuni osib qo'yilishi lozim.<sup>18</sup> Saylovchilar qaidlarni tekshirib tasdiqlashi va o'z USKlaridan ularga o'zgartish kiritishni, jumladan saylov kuni ham, talab qilishlari mumkin.<sup>19</sup> USKning bunga tegishli qarorlari 24 soat davomida qabul qilinishi va bunday qarorlar ustidan shikoyatlar 24 soat ichida taqdim etilishi lozim. Saylovchilarni ro'yxatga olish borasida ovoz berish kundan bir kun avval yoki ovoz berish kunida taqdim etilgan shikoyatlar darhol ko'rib chiqilishi shart.

PSQ ovoz berish kunida ro'yxatdan o'tishga yo'l qo'yadi, bunda saylovchilar asosiy SRga ilovaga shaxsni tasdiqlovchi hujjat va yashash joylarining isboti asosida kiritiladilar. MSK Davlat statistika qo'mitasi bergan ma'lumotga asoslanib 21.435.009 nafar mamlakatdagi va 12.000 nafar mamlakatdan tashqaridagi saylovchilar dastlabki sonini ma'lum bo'ldi.

## VII. NOMZODLARNI RO'YXATGA OLISH

Kamida 35 yoshga kirgan, ovoz berish kuniga qadar mamlakanda kamida 10 yil davomida doimiy yashagan va o'zbek tilini mukammal biladigan O'zbekiston fuqarosi prezidentlikka nomzod bo'lishi mumkin. Tilni bilish darajasini tasdiqlash yo'llari to'g'risida me'yoriy qoidalar mavjud emas. Qastdan sodir etilgan jinoyatlari uchun ilgari sudlangan fuqarolar, fuqaroga jinoiy ish qo'zg'atilib, qonun taqib etilayotgan fuqarolar, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari o'zini nomzodligini qo'ish huquqiga ega emas. O'z-o'zini nomzodini mustaqil ravishda ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Ro'yxatga olingan siyosiy partiya milliy qurultoyini o'tkazib bir nomzodni ko'rsatishi mumkin.<sup>20</sup> Qonunga ko'ra, ro'yxatga olish to'g'risidagi arizalarga qo'llab-quvvatlovchi imzolar ilova qilingan bo'lishi shart.<sup>21</sup> Har bir saylovchi faqat bir nomzodni qo'llab-quvvatlashi mumkin.<sup>22</sup> Nomzodlar ko'rsatish va imzolar yig'ish 20 oktabr kuni yakunlanib o'n kun davomida ariza berish va hujjatlarni tekshirish va ro'yxatga olish jarayoni amalga oshiriladi.<sup>23</sup>

30 oktabr oxirgi ro'yxatga olish muddati tugashi bilan, MSK to'rt siyosiy partiya vakili bo'lmish to'rt prezidentlikka nomzodni: Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi (O'zLiDeP), Xatamjon Ketmonov, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP), Narimon

<sup>18</sup> Harbiy bazalar, sog'liqni saqlash muassasalari, vaqtinchalik hibsdan saqlash muassasalari va diplomatik missiyalarida SR ushbu muassasalar rahbarlari taqdim etgan ro'yxatlar asosida tuziladi. Harbiy qismlardan tashqarida yashaydigan yordamchi xodimlar va ularning oila a'zolari o'zlarining tegishli USKda tuziladigan SRga kiritiladi.

<sup>19</sup> SRga kiritilmaslik, noto'g'ri kiritilish yoki SRdan chiqarib tashlanganlik, shuningdek saylovchi to'g'risidagi ma'lumot noto'g'riligi hollarida.

<sup>20</sup> Siyosiy partiya saylov e'lon qilinishidan kamida olti oy ilgari Adliya vazirligida va MSKda ovoz berish kundan kamida 70 kun avval ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak.

<sup>21</sup> Shuningdek partiyalar partiya qurultoyining nomzod ko'rsatish to'g'risidagi qarori, ushbu qarorni tasdiqlovchi qurultoy bayonnomasi, unga ilova etilgan nomzodning a'zoli to'g'risidagi hujjatni, shaxsiy ma'lumotlar va nomzodning saylovda qatnashishi to'g'risidagi yozma roziligini taqdim etishi kerak.

<sup>22</sup> Partiyalar kamida mamlakatdagi saylovchilarning 1 foiz imzolarini 14 mintaqadan kamida 8tasidan – taxminan 214.000 imzoni yig'ishlari kerak bo'ldi. Buning ustiga, bir hududiy birlikda sakkiz foizdan ortiq imzo olishga yo'l qo'yilmaydi. Imzolar ish joylarda, xizmatda, o'qish, yashash va boshqa tashviqot ba imzo yig'ish taqiqlanmagan joylarda to'planishi mumkin. 4 nomzodning barchasi hamma 14 mintaqadan imzo yig'dilar.

<sup>23</sup> 3 oktabr kuni MSK qo'llab-quvvatlash imzolarini tekshirish uchun MSK, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent Davlat yuridik universiteti, "Kamolot" yoshlar harakati, Fuqarolik jamiyat shakllanishini monitoring mustaqil instituti vakillari va Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislari kasaba yushmasi mutaxassislardan iborat ikki ishchi guruhni barpo etdi.

Umarov, "Adolat" O'zbekiston Sotsial Demokratik Partiyasi va Sarvar Otamuratov, "Milliy Tiklanish" O'zbekiston Demokratik Partiyasi, ro'yxatga oldi.

## VIII. SAYLOVOLDI TASHVIQOT

Rasmiy saylovoldi tashviqot 30 oktabr kuni boshlandi va 2 dekabr kuni tugaydi. U qonun bilan qat'iy tartibga solingan va uni olib borishda saylovni boshqarish organlari faol vazifalar bajaradi. Nomzod tashviqotni olib borishda unga yordam beradigan 15 nafargacha ishonchli vakillarga ega bo'lishi mumkin. Qonun tashviqot olib borish uchun teng imkoniyatlar yaratadi, jumladan, MSK belgilaganidek, ommaviy axborot vositalarideng ravishda yoritilish va har bir hududiy bo'linmada teng sondagi tashqi tashviqot e'lonlar ta'minlanadi. Tashqi tashviqot materiallarini mahalliy ma'muriyatlar OSK belgilagan yerlarda joylashtiradi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat birlashmalari va korxonalar uchrashuvlar uchun jihozlangan xonalarni bepul taqdim etishlari shart. Tashviqot uchun xonalarni talab qilish va ajratish jarayonlari ko'rsatib o'tilmagan. Nomzodlar va ularning ishonchli vakillari boshqa nomzodlarning tashviqot tadbirlarida qatnashishlari mumkin. Nomzodlar aytadigan gaplari qator taqiqlar bilan cheklangan.<sup>24</sup>

Tashviqot o'rtacha darajada diqqatni tortadi, to'rt siyosiy partiya monand tashviqot materiallar majmuidan foydalanish va bir qolipdagi saylovchilarga yetib borish strategiyasini tanlagan. Har bir da'vogar mamlakat uzra joylashtirilga 642 bilbordga va tashviqot xabarlarini namoyish etish uchun 36 elektron ekrandan teng foydalanish imkoniyatiga ega. Barcha nomzodlar mamlakat bo'ylab safar qilmoqda va saylov organlari yordamida tashkil etilgan ko'plab odam qatnashayotgan yigilishlar o'tkazmoqda, ko'p hollarda obro'li mahalliy shaxslarni partiyalarning mahalliy bo'limlari taklif etadilar. Nomzodlar birinchi bor saylovchilarning ko'proq soniga yetib borish maqsadida video-konferensiya usulidan foydalanyapti.

Garchi 2015 yilda qonunga kiritilgan o'zgartishlar bahs-munozarani nazarda tutsa-da, hozircha bahs-munozaralar olib borilmadi. Nomzodlar o'rtasida ularning dasturlariga tegishli bir muncha e'toborga loyiq fikr almashinuvi kuzatilmayapti. Nomzodlarning barchasi hukumatni yoki bir birini tanqid qilishdan o'zlarini tiyib kelmoqda va saylovchilarning aniq bir tabaqalarini mo'ljal qilib oganlikni da'vo qilmoqdalar. Hukumat tashkil qilgan bir necha fuqarolik jamiyati muassasalari saylovchilar qatnashuvini oshirish uchun tashviqot va targ'ibot ishlarini olib bormoqdalar.

Ushbu ilgari bo'lmagan vakolatni otkazishda tashviqot davomidagi asosiy fikr-mulohazalarda davomiylik va barqarorlikka urg'u berilmoqda. Avvalgi tajribadan kelib chiqib, partiyalar jamoatchilik murojaatlarini qabul qilib olish markazlarini barpo etdilar. Bosh Vazir va Prezident vazifasini bajaruvchi jamoatchilikni turli yo'llar bilan jumladan O'zLiDePning mahalliy bo'limlari idoralari orqali savollar jo'llashga rag'barlantirish uchun o'z rasmiy veb-saytidan foydalanmoqda.<sup>25</sup> O'zLiDeP nomzodi ba'zi masalalarni davlat muassasalari tomonidan yechilganini namoyish qiluvchi Facebook sahifasi bilan ko'lamli diqqatni tortmoqda.

Saylov yili davomida partiyalar tashviqot bilan bog'liq xarajatlar uchun qo'simcha davlat mablag'ini oladilar. Ushbu saylov uchun har bir partiya 1 milliard so'm (taxminan 294.000 yevro) miqdorida mablag' olishga haqli.<sup>26</sup> Muayyan partiya yoki nomzodga tashviqot olib borish uchun

<sup>24</sup> Masalan, nomzodlarning aytgan gaplari kishilarning sog'lig'i va axloqiga daxl qilmasligi, boshqa nomzodlarning sha'ni va obro'siga tegmasligi, va shaxsiy yoki oilaviy sirlarini oshkor qilmasligi kerak.

<sup>25</sup> Shuningdek, fuqarolar shikoyatlarini ishonch telefonlari orqali yoki onlayn berishlari mumkin.

<sup>26</sup> Rasmiy kursga ko'ra, 1 evro taxminan 3.400 somga teng.

xususiy mablag' kiritish taqiqlangan; biroq, mablag' MSKga o'tkazilishi mumkin, undan esa mablag'ni nomzodlar orasida teng taqsimlash talab qilinadi.

Siyosiy partiyalardan saylov natijalari e'lon qilinishidan 20 kun o'tgach tashviqot davri to'g'risidagi moliyaviy hisobotni MSKga topshirish talab qilinadi. Buning ustiga, ulardan partiya gazetasi va partiyaning rasmiy veb-saytida daromad to'g'risidagi hisobotni saylov natijalari e'lon qilingandan keyin bir oy davomida e'lon qilish talab etiladi. Hisob palatasi va Moliya vazirligiga partiya va tashviqot moliyaviy talablarida rioya etilishini kuzatish vakolati berilgan.

## IX. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Konstitutsiya axborotga ega bo'lish va so'z erkinligini kafolatlaydi, ammo u ommaviy axborot vositalariniga tarqatayorgan axborotning "ishonchligi" uchun OAVning o'ziga javobgarlik yuklatilgan. Qonun erkin axborot berishni, shu jumladan internet orqali ham cheklagan, III-shaxc joylashtirgan axborot uchun xosting vositachisi aybdor deb topiladi. Tuxmat, "fuqarolarning sha'niga tegish", saylov davrida "yolg'on axborot" tarqatish va jurnalistlarni "ichki siyosatga aralashuvi" jinoyiy huquqbuzarlik hisoblanib, besh yilgacha qamoq jazosiga mahkum qilinishi mumkin. Davlat vakillari tanqidiy publikatsiyalarga qarshi chora ko'rishda ko'maklashadi.<sup>27</sup> Ommaviy axborot erkinligi bo'yicha YEHTning vakili (OAVEV) yoqori darajadagi cheklovchi qonunlarni ularning tadbiiq etilishini tanqid ostiga oldi.<sup>28</sup>

Davlatga tegishli Milliy televideniye va radio kompaniyasi (MTRK), butun mamlakat miqyosida, siyosiy axborotni uzatuvchi asosiy, yagona manbaidir.<sup>29</sup> MTRKning tahririyat yoritishi hukumat nazoratidagi yangilik agentliklari mahsulotiga asoslanadi. Xususiy uzatish va bosma axborot vositalarining mazmuni MTRKnikiga oxshaydi, ammo ko'ngil ochar qismi ko'proqdir. Onlayn manbalar ichki voqealarni, jumladan saylovni, yoritishga bo'lgan an'anaviy yondashuvga muqobil chiqishga harakat qiladilar. Prezident yoki hukumat siyosatiga tanqidiy qaraydigan veb-saytlaridan foydalanish imkoniyati ko'p hollarda yopiq bo'ladi.

PSQ va MSK nizomlari, boshqa narsalar bilan bir qatorda, tashviqotni yoritishning miqdor jihatlarni belgilaydi: har bir nomzodga ikki milliy TV kanalida kuniga taxminan bir soat, 13 viloyat uzatuvchilarda jami 13 soat tekin uzatish vaqti berilgan; kundalik tekin bosma tashviqot maydoni 5 milliy va 30 viloyat gazetasi orasida teng taqsimlangan.<sup>30</sup> Ham davlat, ham xususiy ommaviy axborot vositalari o'z tahririyat materiallarida teng e'tibor berishlari va nomzodlarning rasmiy vakolatida qilingan ishlarini sharhlashdan o'zlarini tiyishlari lozim. Shunday bo'lsa-da, MSK

<sup>27</sup> Qator hukumat nazoratidagi birliklar ommaviy axborot sektorini kuzatib boradi va nazorat qiladi. Rahbarini Prezident tayinlaydigan Matbuot va axborot agentligi (MAA) keng tushunchalar orqali ta'riflangan asoslarga ko'ra ommaviy axborot vositasining faoliyatini to'xtatib qoyish tashabbusi bilan chiqishi mumkin; 2015 yilda barpo etilgan Axborot texnologiyalar va kommunikatsiyani rivojlantirish vazirligi (ATARV) onlayn ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari ustidan davlat nazoratni mujassamlashtirish vakolatiga ega; u erda Monitoring markazi va ekspert komissiyasi mavjud – har ikki muassasa boshqaruvi va tarkibi ravshan emas, har ikkalasi onlayn va oflayn kontentni tahlil qilib boradi. 2016 yil 20 may kuni Toshkent xo'jalik sudi O'zbekistonning ommada mutanosib axborot beruvchi sifatida qabul qilingan, eng eski gazetalaridan biri "Noviy Vek" gazetasining litsenziyasini qaytarib oldi. MAA gazeta muntazam ravishda to'rt turli qonunni buzgan, deb ta'kidlaydi.

<sup>28</sup> YEHT OAVEVning 2016 yil 10 oktabr, 2016 yil 29 aprel va 2014 yil 8 sentabr bayonotlarini ko'ring ([10 October 2016](#), [29 April 2016](#) and [8 September 2014](#)).

<sup>29</sup> MTRKning rahbarini prezident tayinlaydi; viloyat markazlarida idoralari mavjud; jami 26 TV va radio stansiyalarni o'z ichiga oladi, har birining belgilangan auditoriyasi va e'tibor beriladigan mavzulari bor.

<sup>30</sup> MSKning 2016 yil 28 oktabrdagi 764-son nizomida nomzodlar navbatini va davlat ommaviy axborot vositalari dasturlarida tekin efir vaqti/maydon ajratilishi belgilandi. Tekin efir dasturlari shanba va yakshanba kunlari uzatilmaydi.



nizomlarida nomzodlarning lavozimlarida erishgan yutuqlari to'g'risida axborot berishni tashviqot, deb hisoblanmaydi.

MSK ommaviy axborot vositalari ustidan qoidalarga rioya qilishini butun mamlakat bo'ylab va OSKI hududiy ommaviy axborot vositalari ustidan nazorat qiladi. Axborot texnologilar va aloqani rivojlantirish vazirligi kontentni kuzatib boradi va MSKga axborot beradi. Kuzatish natijalari saylov o'tib bo'lgunga qadar jamoatchilikka e'lon qilinmaydi. YEHXT/DIIHB SKM ommaviy axborot vositalarini kuzatishni 4 noyabr kundan boshladi.<sup>31</sup>

## X. SHIKOYAT VA MUROJATLAR

Saylovga doir nizolarni hal qilish bir necha qonun va MSK qarorlari bilan tartibga solinadi.<sup>32</sup> Umuman, quyidan yuqoriga qaratilgan tizim mavjud, chunki saylov komissiyalarining qarorlari, harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyatlar yuqori turgan komissiyaga beriladi. USK va OSK qarorlari ustidan apellyatsiya tuman sudlariga beriladi, holbuki MSK qarorlari ustidan apellyatsiya Oliy Sudga berilishi mumkin. Qonunda kim shikoyat bilan murojlat etishi mumkinligi aniq ko'rsatilmagan.

Qoida tariqasida, saylov komissiyalari, sudlar uch kun ichida qaror chiqarishi shart. Saylov kuniga olti kun qolganda taqdim etilgan shikoyatlar darhol ko'rib chiqilishi shart. Saylov komissiyalariga berilgan shikoyatlardan farqli o'laroq, sudlarga taqdim etilganlari aloqador taraflar ishtirokida ochiq jarayonda ko'rib chiqilishi lozim. MSK saylovni butunlay yoki qisman bekor qilishi mumkin. MSKning saylovni bekor qilishi ustidan apellyatsiyani faqat nomzodlar berishi mumkin, apellyatsiya saylov natijalari e'lon kilinishidan keyin o'n kun davomida Oliy Sudga beriladi. MSK va Ombudsman savlov bilan bog'liq shikoyatlarni qabul qilish uchun ishonch telefon liniyalari ishlab turibdi.

## XI. MILLIY KAMCHILIKNI TASHKIL QILUVCHILAR ISHTIROKI

Konstitutsiya jins, irq, millat, til, din, ijtimoiy kelib chiqish, e'tiqod, shaxsiy va ijtimoiy maqom boyicha ajratmay teng huquq va erkinliklarni va til, odat va an'analarga hurmat asosida munosabatni belgilaydi.

O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib o'zbek millati vakillari aholining taxminan 82 foizini tashkil qiladi. Davlat statistika qo'mitasi 2016 yilning statistic ma'lumotiga ko'ra boshqa millat a'zolari tojiklar -4,7 foiz, qozoqlar - 2,5 foiz, ruslar - 2,4 foiz va qoraqalpoqlar -2,0 foizni tashkil etadi, deb YEHXT/DIIHB SKMga axborot berdi.<sup>33</sup> Oxirgi guruh asosan avtonom respublika maqomiga ega Qoraqalpog'istonda yashaydi.

Davlat tili to'g'risidagi qonunda o'zbek tili rasmiy til ekanligi ta'kidlanadi, ammo "Qoraqalpog'iston Respublikasida tildan foydalanishga doir masalalar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi" deyilgan. Garchi rus tili rasmiy maqomga ega bo'lmasa-da, barcha saylov materiallari, jumladan tegishli qonun hujjatlari va MSK nizomlari, o'zbek va rus tillarida nashr qilingan. Qonunga ko'ra, saylov byulletenlar davlat tilida chop etilgan

<sup>31</sup> YEHXT/DIIHB SKM ommaviy axborot monitoringini kundalik asosda praym-taym vaqtida davlat TV O'zbekiston, Yoshlar, Toshkent kanallari va xususiy UzReportTV; davlat radiosi „O'zbekiston kanali“; davlat gazetlari „Narodnoe Slovo“, „Pravda Vostoka“, „Xalq So'zi“ va „Darakachi“ tijorat nashi boyicha amalga oshirmoqda.

<sup>32</sup> Jumladan PSQ, Saylov to'g'risida qonun va Fuqarolar murojaatlary qonuni.

<sup>33</sup> Oxirgi rasmiy aholini ro'yxatga olich 1989 yilda otkasilgan.

va boshqa tillardan “keng foydalanadigan” yerlarda boshqa tillarda ham chop etilishi mumkin. MSKning qarorida byulletenlar uch o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarda chop etilishi ko'rsatilgan, hamda boshqa qarorda mamlakat miqyosidagi davlat gazetalari nomzodlarga tashviqot axborotlari uchun rus, tojik va qozoq tillarida tekin bosma maydon ajratishlarini belgilanadi.<sup>34</sup>

Kamchilikni tashkil qiluvchi aholi zich yashaydigan hududlarda aksariyat USKda kamchilik millatlar mutanosib vakillikka ega bo'lgan holda, ba'zi kattagina elatlar ba'zi OSKlarida yetarlicha o'rin olmagan ko'rinadi.<sup>35</sup>

## **XII. FUQARO VA XALQARO KUZATUVCHILAR**

Siyosiy partiyalar kuzatuvchilari va xalqaro kuzatuvchilar saylov jarayonining barcha bosqichlarini kuzatishlari va natijalar bayonnomalarining nusxalarini olishlari mumkin. Faqat xalqaro kuzatuvchilar matbuot anjumanlarini olib borish va intervyu berish huquqiga ega. YEHXT/DIIHBning avvalgi tavsiyasiga qaramay, qonunchilikda fuqarolarning saylovda kuzatuvchi sifatida ishtiroki nazarda tutilmagan.

Kuzatuvchlarni akkreditatsiya qilish uchun arizalar 19 noyabrga qadar taqdim etilishi lozim. Partiya kuzatuvchilari tegishli OSK va chet ellik kuzatuvchilar MSK tomonidan akkreditatsiya qilinadi. MSK va OSKga qaroq qabul qilish uchun besh kun muddat berilgan. Har bir siyosiy partiya har bir saylov uchastkasida bir kuzatuvchi tayinlash huquqiga ega. To'rt siyosiy partiyaning barchasi kuzatuvchilar tayinlashni rejalashtirmoqda.

## **XIII. YEHXT/DIIHB SKM FAOLIYATI**

2 noyabr kuni bo'lib o'tgan matbuot anjumani bilan birga, YEHXT/DIIHB SKM Toshkentda ochilishi bo'ldi. YEHXT/DIIHB SKM hukumat organlari, MSK rasmiylari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati vakillari, YEHXT loyihalari koordinatori va xalqaro jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.<sup>36</sup>

*Ushbu hosobotning ingliz tilidagisi yagona rasmiy hujjat hisoblanadi.*

*Norasmiy tarjimalar o'zbek va rus tillarida mavjud.*

<sup>34</sup> Davlat milliy gazetalari: Narodnoe slovo, Ovozi Tojik va Nurli Jol.

<sup>35</sup> Samarqand va Buxoroda OSKda tojiklardan vakil yo'q.

<sup>36</sup> YEHXT/DIIHB SKM va O'zbekistondagi YEHXT loyihalari koordinatori bir biridan alohida vakolatlari doirasida faoliyat olib boradi.